



INTERNATIONAL
KURASH
INSTITUTE



O'ZBEKİSTON DAVLAT
JİSMONİY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSİTETİ



TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSİTETİ
Tashkent state
transport university

KURASH SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

XALQARO İLMİY-AMALIY KONFERENSIYA

АКТУФЛЬНЫЕ ПРОБЛУМЫ

НАЦИОНАЛЬНОГО ВИДА СПОРТА - КУРАШ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

ACTUAL PROBLEMS

OF THE NATIONAL SPORT - KURASH

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

MATERIALLAR TO'PLAMI

2025-YIL 7-8-MAY
MAY 7-8. 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
XALQARO KURASH ASSOTSIATSIYASI

XALQARO KURASH INSTITUTI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI



**KURASH SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ВИДА
СПОРТА - КУРАШ**

**ACTUAL PROBLEMS OF THE NATIONAL SPORT -
KURASH**

MAY 7-8. 2025

CHIRCHIQ-2025

FUTBOL SPORTI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING ILMIY-METODIK XUSUSIYATLARI

**Anorboyev Bekmurod Dilmurod o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Ismatillayeva Malika Sirojiddin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada yurtimizda sportning barcha turlari singari futbolni yuqori darajada rivojlantirish uchun olib borilgan islohotlarni chuqur o'rganish, taxlil qilish, sohadagi natijalarni o'rganish, adabiyotlarni taxlil qilish, soha mutaxassislarining olib borgan ilmiy izlanishlarini taqqoslash orqali futbolni o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sport, futbol, futbolchi, ta'lim, nazariy, amaliy, texnika, taktika, o'yin, hakamlik, zarba, to'p, hujum, darvoza, jarayon.

ANNOTATION In this article, in-depth study and analysis of the reforms carried out for the high development of football, like all types of sports in our country, the study of the results in the field, the analysis of the literature, the scientific-methodical features of football training by comparing the scientific researches conducted by experts in the field are developed. released.

Key words: sport, football, football player, education, theoretical, practical, technique, tactics, game, referee, kick, ball, attack, goal, process.

АННОТАЦИЯ В данной статье проводится углубленное изучение и анализ реформ, проведенных для высокого развития футбола, как и всех видов спорта в нашей стране, изучение результатов на местах, анализ литературы, научно-методический разработаны особенности футбольной тренировки путем сопоставления научных исследований, проведенных специалистами в данной области.

Ключевые слова: спорт, футбол, футболист, воспитание, теоретическое, практическое, техника, тактика, игра, судья, удар, мяч, атака, гол, процесс.

O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, qobiliyatli yoshlarni sportga jalgan etish, milliy futbolimizni yanada qo'llab quvvatlash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda professional mahorat hamda ko'nikmalarni chuqur rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek ularidan futbol bo'yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari qabul qilindi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun maktabda qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" deb alohida ta'kidlab o'tganlar. Mamlakatimizdagi bir qancha futbol mutaxassislarining fikricha yosh futbolchilarning texnik taktik ko'nikmalarini

egallahda ortda qolishlarni, eng avvalo yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga keladigan muammolar bilan izohlash mumkin.

Futboldagi yangi va samarali usullarining paydo bo‘lishi futbolchilarning harakatlari yuksak darajada bo‘lishini talab etmoqda. Har bir futbolchi bir o‘yin davomida jamoasining g‘alaba qozonishi uchun ko‘pgina harakatlar bajarishadi.

Ko‘pgina futbol bo‘yicha mutaxassislar R.A.Akramov, M.A.Godik, Yu.N.Lopachev, G.M. Sergeyev, I.A. Koshbaxtiyev, A.I. Talipjanovlar o‘z ishlarida futbolchining o‘yindagi to‘p bilan, to‘psiz va o‘yindagi boshqa holat harakatlarini tekshirishgan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Futbol o‘yinida futbolchilarning asosiy harakatlaridan bir to‘p bilan muomalada bo‘lishi, ya’ni to‘p bilan harakatlanishlar bo‘lib, unda futbolchilar to‘pga zarba berish, bosh va oyoq bilan maydondagi aldamchi harakatlari, raqibi bilan to‘p uchun kurashishi, to‘pni olib yurish va to‘pni to‘xtatish harakatlarini bajarishadi.

N.M. Lyukshinov o‘zining tadqiqot ishlarida futbolchining bir o‘yindagi to‘p bilan harakatlarini kuzatgan. Uning kuzatishicha futbolchining to‘pga zarba berishi 37,6% ni, raqibi bilan to‘p bilan uchun kurash va fintlar 20,8%, tupni olib yurish 17,7% ni va to‘pni tuxtashishlar 23,9% ni tashkil etishini ko‘rsatgan. To‘pga zarba berishda 83,4% - oyoqda, 16,6% bosh bilan berilar ekan. Shulardan futbolchilar tomonidan oyoqda beriladigan zarbalarining oyoq tovonining ichki qismi bilan 26,5% oyoq yuzasining yon qisim bilan 30,3% eng ko‘p zorbalar berilar ekan.

Raqib jamoasining darvozasiga to‘p yo‘llash, xar bir jamoa futbolchilarining asosiy maqsadidir. Futbolchilar tomonidan darvoza tomon yo‘llangan zarbalarining oyoqning qaysi qismida samarali bajarilishini M.S. Brilnning ishlaridan bilib olishimiz mumkin.

Texnik usullar, bu futbol o‘yini vujudga keltirish natijasi demakdir. Yuksak futbol natijalariga erishish ko‘p jixatdan futbolchining an shu xil vositalarni qanchalik to‘liq bilishsa, raqib jamoa o‘yinchilarni qarshilik ko‘rsatayotgan, ko‘pincha charchoq ortib borayotgan sharoitda o‘yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mahorat bilan, samarali qo‘llanishga bog‘liq.

Hozirgi futboldagi texnik usullar o‘yin harakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan etarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan, biomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakat tizimi bilan xarakterlanadi.

Futbol texnikasini o‘zlashtirib olishdagi qiyinchiliklar, aftidan, shu bilan izohlanadiki, bunda to‘pni oyoq va bosh bilan o‘ynatish zaruriyati, buning ustiga raqib bilan qattiq olishish zarurati tug‘iladi.

Ma’lumki, yuqori malakali futbolchining alohida mahorati jismoniy, texnik, nazariy va irodaviy tayyorgarlik kabi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi, buni esa, o‘z navbatida, yosh futbolchilar o‘quv-mashq jarayonining samaradorligini oshirishsiz tasavvur etish mumkin emas.

Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik

darajalarini xususan tayyorgarlik va musobaqa davrlarida nazorat qilish, maxsus bayonnomalarda qayd etilgan ahamiyatli ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali yaratilgan xulosalar futbolchilarni tayyorlash jarayonida asosiy ahamiyatga ega. Individual yoki jamoaviy kuzatuv natijalariga asoslanib, futbolchilarining jismoniy, texnik, taktik, psixologik tayyorgarlik tomonlariga shubhasiz, pedagogik ta'sir etish imkonini bo'ldi.

Mashg'ulotlarda yosh futbolchilarga jismoniy rivojlanish, texnik-taktik mashqlar haqida atroflichcha nazariy ma'lumotlarni berib borish shuningdek sport inshootlari, sport kiyimlari, asbob uskunlari bilan tanishtirish va eng muhim musobaqalar o'tkazish, hakamlik qilish, doir amaliy maslahatlar berish muhim ahamiyatga ega.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент “Ўзбекистон” – 2017 й.
2. A.I.Talipjanov “Futbol texnikasi” Toshkent 2010-y.
3. I.A. Koshbaxtiev “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro'li va ahamiyati” Toshkent 2015-y.
4. R.A.Akramov “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent 2012-y.

105	SH.I.BOBOMURODOV KURASHCHI QIZLARNING MASHG'ULOTDAGI OVQATLANISHINING UMUMIY TALABLARI	414-415
106	З.Н.Бобошев СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИЗОКИНЕТИЧЕСКОЙ И ПЛИОМЕТРИЧЕСКОЙ ПРОГРАММ ТРЕНИРОВОК В ПОВЫШЕНИИ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ЧЕТЫРЕХГЛАВЫХ МЫШЦ БЕДЕР КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КУРАШИСТОВ	416-419
107	G.Sh.Buvorayeva O'QUVCHILAR FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KURASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI	420-423
V SHO'BA. KURASH SPORT TURINI NUFUZLI XALQARO SPORT TASHKILOTLARIGA HAMDA OLIMPIYA O'YINLARI DASTURIGA KIRITISH: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
108	G.Sh.Buvorayeva., G.Sh.Turayeva O'ZBEK KURASHINING AN'ANAVIY QADRIYATLARI	424-426
109	B.D.Anorboyev., M.S.Ismatillayeva FUTBOL SPORTI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING ILMIY-METODIK XUSUSIYATLARI	427-429
110	E.M.Soatov OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KURASH BO'YICHA AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	430-433
111	Z.O'.Rasulov THE PHENOMENON OF AESTHETIC EXPERIENCE IN SPORTS EVENTS AND SPECTACLES	434-436
112	G.A.Ma'murbekova SAMBOCHI QIZLARNING TEZKOR-KUCH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONIDAGI METODIK YONDASHUVLAR	437-439
113	M.A.Jurayev ZAMONAVIY SPORTDA DOPING QABUL QILISH HOLATLARIYU, KURASHCHILARNI DOPING TEKSHIRUVIDAN O'TKAZISH	440-441
114	N.Q.Ro'ziboyeva., G.Sh.Turayeva KURASHNING XALQARO SPORT MAYDONIDAGI O'RNI	442-444
115	J.M.Shukurllayev., H.B.Ismailova., N.Q.Ro'ziboyeva KURASHNING XALQARO DARAJADAGI O'RNI	445-447
116	H.B.Ismailova., G.Sh.Turayeva KURASH MASHG'ULOTLARINING XUSUSIYATLARI	448-450
117	S.K.Toshpulatov., M.J.Shahridinov., D.I.Alimova SPORT O'YINLARI MUSOBAQA JARAYONI TARKIBIY TUZILISHKOMPONENT VA OMILLARI	451-453
118	G.Sh.Turayeva TALABALARGA KURASH SPORTINING MILLIY QADRIYATLARINI SINGDIRISH	454-456
119	B.I.Xo'janiyozov D.J.Babadjanova, B.O. Hasanov., Sh.H.Jumaboyev KURASH YURTIMIZ FAXRI	457-463
120	H.D.Sultonov MILLIY KURASH -MILLIY QADRIYAT SIFATIDA	464-466
121	J.M.Shukurllayev., M.M.Xonchayev., N.Q.Ro'ziboyeva KURASH SPORT MASHG'ULOTINING ASOSIY TAMOYILLARI	467-470
122	N.Q.Ro'ziboyeva O'ZBEKİSTONNING KURASHDAGI YUTUQLARI	471-473
123	I.M.Mirzakulov MINTAQADA XALQARO MUSOBAQALAR VA OLIMPIYA O'YINLARI DASTURI BO'YICHA TARG'IBOT ISHLARI	474-476